XALQ DEPUTATLARI BERUNIY TUMAN KENGASHINING QARORI

XALÍQ DEPUTATLARÍ BERUNIY RAYONLÍQ KEŃESINIŃ QARARÍ

2024 - yil 22 - yanvar VI-79-1-13-182-K/24 Beruniy tuman hokimligi

Beruniy tumanida 2024-yilda bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida

Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2024-yil 8-yanvar kungi “Qoraqalpog`iston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig`i stavkalarini belgilash haqida”gi 1495-sonli qaroriga muvofiq, soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlarni qo`llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429,437-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga asoslanib Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2024-yil 8-yanvar kungi 1495-sonli “Qoraqalpog‘iston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida”gi qarori rahbarlikka olinsin.

2. Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi belgilangan yer solig‘i stavkalariga, tuman hududida joylashgan ovul va mahallalar kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqiga ega ekanligi;

Bunda, belgilangan yer solig‘i stavkasiga soliq yukini keskin oshirishning oldini olish maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘iga belgilangan (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) stavkasiga 2024-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 hissasidan oshmagan holda koeffitsientlarni qo‘llash, shuningdek, jismoniy shaxslar egalik qilayotgan bir gektardan ortiq yer uchastkalariga 3,0 ga qadar oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash ma'qullaansin.

3. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 1-ilovaga muvofiq, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Beruniy tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Matirzayev), Beruniy tumani soliq inspeksiyasi (K.Atadjanov) bilan birgalikda tumandagi yuridik va jismoniy shaxslarning egallagan yer maydonlariga soliq stavkalarini to‘g‘ri qo‘llanilishi bo‘yicha doimiy nazorat o‘rnatsin.

5.Beruniy tumani soliq inspeksiyasi (K.Atadjanov)ga Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha yer solig‘i to‘lovchilarni o‘z vaqtida xabardor qilish va undirilishini ta’minlash topshirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

7. Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining 2023-yil 17-yanvar kungi VI-60-2-13-182-K/23-sonli sessiya qarori (Xalq Minbari gazetasining 2023-yil 24-yanvardagi №1-2 (6442-6443)- son) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu qaror tuman “Xalq minbari” gazetasida e'lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy vebsaytida joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi o‘rinbosari **M.Kadirov**

Xalq deputatlari Beruniy tuman
Kengashining
2024-yil 22-yanvardagi
VI-79-1-13-182-K/24-son qaroriga
1-ilova

Beruniy tumanida qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo’yicha eng kam miqdori 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to’g’risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

T/r	OFY, MFYlar nomi	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	2024-yil uchun yer solig‘i stavkasi (ming.so‘mda)
1	A.Temur MFY	0,90	25 515,00
2	Abay OFY	0,70	19 845,00
3	Beruniy OFY	0,70	19 845,00
4	Biybazar OFY	0,70	19 845,00
5	Birlik MFY	0,90	25 515,00
6	Bunyodkor MFY	0,90	25 515,00
7	Bo'ston MFY	0,90	25 515,00
8	Guliston MFY	0,90	25 515,00
9	Do'stlik MFY	0,90	25 515,00
10	Do'stlik OFY	0,70	19 845,00
11	Jayxun MFY	0,90	25 515,00
12	Jumaniyazov MFY	0,90	25 515,00
13	Ibn-Sino MFY	0,90	25 515,00
14	Istiqlol MFY	0,90	25 515,00
15	Qangshartal MFY	0,70	19 845,00
16	Qizil kal'a OFY	0,70	19 845,00
17	Qiyat MFY	0,90	25 515,00
18	Lolazor MFY	0,90	25 515,00
19	Markaziy MFY	0,90	25 515,00
20	Maxtimkuli OFY	0,70	19 845,00
21	Mustaqillik MFY	0,70	19 845,00
22	Navoiy MFY	0,90	25 515,00
23	Navoiy OFY	0,90	25 515,00
24	Navro'z MFY	0,90	25 515,00
25	Nayman MFY	0,70	19 845,00
26	Obi-hayot MFY	0,90	25 515,00
27	Ozod OFY	0,70	19 845,00
28	Oltinsoy OFY	0,70	19 845,00
29	Palvash MFY	0,70	19 845,00
30	Paxtakor MFY	0,90	25 515,00

31	Sarkop OFY	0,90	25 515,00
32	Saroyko'l MFY	0,90	25 515,00
33	Tinchlik OFY	0,90	25 515,00
34	To'qiimachi MFY	0,90	25 515,00
35	Turon MFY	0,90	25 515,00
36	Xorazm MFY	0,90	25 515,00
37	Shabboz MFY	0,90	25 515,00
38	Shabboz OFY	0,90	25 515,00
39	Shimom OFY	0,90	25 515,00
40	Yangiobod MFY	0,90	25 515,00

Qo’shimcha: Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan yuridik shaxslar uchun yer soliqi stavkasining ovul va mahalla fuqarolar yig’inlari hamda ko’chalar kesiminda ularning iqtisodiy jihatidan rivojlanishiga qarab 0,7 dan 3,0 ga qadar kamaytiruvchi hamda oshiruvchi koeffitsentlarining belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Beruniy tuman
Kengashining
2024-yil 22-yanvardagi
VI-79-1-13-182-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo’yicha (dehqon xo’jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlardan tashqari) eng kam miqdori 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to’g’risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

T/r	OFY, MFYlar nomi	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	2024-yil uchun yer solig‘i stavkasi (so‘mda)
1	A.Temur MFY	0,90	210,24
2	Abay OFY	0,70	163,52
3	Beruniy OFY	0,70	163,52
4	Biybozor OFY	0,70	163,52
5	Birlik MFY	0,90	210,24
6	Bunyodkor MFY	0,90	210,24
7	Bo'ston MFY	0,90	210,24
8	Guliston MFY	0,90	210,24
9	Do'stlik MFY	0,90	210,24
10	Do'stlik OFY	0,70	163,52
11	Jayxun MFY	0,90	210,24
12	Jumaniyazov MFY	0,70	163,52
13	Ibn-Sino MFY	0,70	163,52
14	Istiqlol MFY	0,90	210,24
15	Qangshartal MFY	0,70	163,52
16	Qizil kal'a OFY	0,70	163,52
17	Qiyat MFY	0,90	210,24
18	Lolazor MFY	0,90	210,24
19	Markaziy MFY	0,90	210,24
20	Maxtimquli OFY	0,70	163,52
21	Mustakillik MFY	0,70	163,52
22	Navoiy MFY	0,90	210,24
23	Navoiy OFY	0,70	163,52
24	Navro'z MFY	0,90	210,24
25	Nayman MFY	0,70	163,52
26	Obi-hayot MFY	0,90	210,24
27	Ozod OFY	0,70	163,52
28	Oltinsoy OFY	0,70	163,52
29	Palvash MFY	0,70	163,52
30	Paxtakor MFY	0,90	210,24
31	Sarkop OFY	0,70	163,52

32	Saroyko'l MFY	0,90	210,24
33	Tinchlik OFY	0,70	163,52
34	To'qimachi MFY	0,90	210,24
35	Turon MFY	0,70	163,52
36	Xorazm MFY	0,90	210,24
37	Shabboz MFY	0,90	210,24
38	Shabboz OFY	0,70	163,52
39	Shimom OFY	0,70	163,52
40	Yangiobod MFY	0,90	210,24

Qo’shimcha: Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer soliqi stavkasining ovul va mahalla fuqarolar yig’inlari hamda ko’chalar kesiminda ularning iqtisodiy jihatidan rivojlanishiga qarab 0,7 dan 3,0 ga qadar kamaytiruvchi hamda oshiruvchi koeffitsentlarining belgilash huquqiga ega.